

XALQARO HUKUMATLARARO TASHKILOTLARNING HUQUQIY LAYOQATI**Rasulova Ruxshona Zafar qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs "B" potok 2-guruh talabasi.

tel: +998-97-250-27-07. e-mail: rasulovaruxshona07@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15163629>

Annotatsiya. Maqola xalqaro hukumatlararo tashkilotlar (XHT) ning huquqiy layoqati (legal personality) masalasini tahlil qiladi. Unda XHTlarning huquqiy sub'yekt sifatidagi mavqeyi, huquqiy layoqat manbalari, chegaralari va amaliy namoyon bo'lish shakllari yoritilgan. Maqolada XHTlarning shartnomalar tuzish, da'vo qilish, immunitetlar va boshqa huquqlari misollar bilan tushuntirilgan.

Kalit so'z: Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar (XHT), huquqiy layoqat (legal personality), xalqaro huquq sub'yekti, funktsional tamoyil, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Vena konvensiyasi (1986), imtiyozlar va immunitetlar, xalqaro shartnomalar.

LEGAL PERSONALITY OF INTERNATIONAL INTERGOVERNMENTAL ORGANIZATIONS

Abstract. The article analyzes the issue of legal personality of international intergovernmental organizations (IGOs). It covers the status of IGOs as legal entities, sources, limits and forms of practical manifestation of legal personality. The article explains the rights of IGOs to conclude treaties, sue, immunities and other rights with examples.

Keywords: International intergovernmental organizations (IGOs), legal personality, international legal entity, functional principle, United Nations (UN), Vienna Convention (1986), privileges and immunities, international treaties.

ПРАВОСПОСОБНОСТЬ МЕЖДУНАРОДНЫХ МЕЖПРАВИТЕЛЬСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Аннотация. В статье анализируется вопрос правосубъектности международных межправительственных организаций (МПО). В нем рассматриваются вопросы статуса МПО как юридических лиц, источники правоспособности, их границы и формы практического проявления. В статье на примерах разъясняются права МПО заключать договоры, предъявлять иски, иммунитеты и другие права.

Ключевые слова: Международные межправительственные организации (МПО), правосубъектность, международное юридическое лицо, функциональный принцип, Организация Объединенных Наций (ООН), Венская конвенция (1986 г.), привилегии и иммунитеты, международные договоры.

Ma'lumki, bugungi kunda xalqaro tashkilotlarning xalqaro huquqda tutgan o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki davlatlar bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlar ham xalqaro huquqning asosiy subyektlari sifatida e'tirof etiladi.

Avvalombor xalqaro tashkilotlar tushunchasiga ta'rif berib o'tadigan bo'lsak, xalqaro tashkilotlar – davlatlarning yoki hukumat qaramog'ida bo'lmagan milliy jamiyat (assotsiatsiya)larning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, fan-texnika, madaniyat va shu kabi sohalarda umumiy maqsadlarga erishish uchun tuzilgan uyushmasi, davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlikning eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning huquqiy layoqati deganda, tashkilotning huquqiy sub'ekt sifatida mustaqil huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi, shartnomalar tuzishi, da'volar qilishi va da'vogar bo'lishi, shuningdek mol-mulkka ega bo'lishi kabilar tushuniladi. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar XIX asga kelib paydo bo'la boshladi. Hozirgi kunda ular xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etmoqda (ham butunjahon, ham mintaqaviy miqyosida), siyosiy, iqtisodiy va xalqaro munosabatlarda faol ishtirok etmoqda. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar boshqa davlatlar ularga tegishli huquq va majburiyatlarning berilishiga rozilik berganliklari sababli hozirgi zamon xalqaro huquqi subyektlari hisoblanadilar.¹

BMT Nizomining 104-moddasida: "Tashkilot har bir a'zo davlat hududida o'z funktsiyalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan huquqiy layoqatga ega bo'ladi" deyilgan. XHTlarning huquqiy layoqati xalqaro va milliy huquq tizimlarida farq qilishi mumkin. Professor Catherine Brölmann shunday deydi:

"Xalqaro tashkilotning milliy huquq tizimidagi layoqati ko'pincha a'zo davlatlarning ichki qonunchiligi yoki tashkilot bilan tuzilgan shtab-kvartira shartnomasi bilan belgilanadi. Bu xalqaro darajadagi layoqatdan keskin farq qilishi mumkin."²

Xalqaro tashkilotlarning davlatlararo xalqaro munosabatlarda tobora muhim o'rin tutayotganligi, xalqaro masalalarni hal etishda xalqaro muvofiqlashtiruvchi tuzilma sifatida namoyon bo'lishi, uning xalqaro huquq subyekti sifatida maqomini o'rganishni, asosiy xususiyatlarini tadqiq etishni talab etadi. Xalqaro tashkilotlar o'z hududi, o'z aholisiga ega bo'lmasa-da, ta'sis hujjatlariga muvofiq xalqaro huquq subyekti hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, xalqaro tashkilotlarning xalqaro huquq subyektiligi shartnomaviy-huquqiy asosga ega. Xalqaro tashkilot o'z faoliyatini amalga oshirishda uning ta'sis hujjatida belgilangan vakolatlardan tashqariga chiqib keta olmaydi. Aynan mazkur holat ham xalqaro tashkilotlarni universal huquq subyektilikka ega bo'lgan davlatdan farqlab turadi. BMT Ustavi 104-moddasiga

¹ Xalqaro ommaviy huquq: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik: / Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E.; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent davlat yuridik instituti. - Toshkent: Adolat, 2007. - b 79

² Catherine Brölmann "The Institutional Veil in Public International Law" 2007, p. 132

muvofig Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'z a'zolaridan har birining hududida o'z vazifalarini bajarish va o'z maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lib qolishi mumkin bo'lgan huquq layoqatidan foydalanadi. Xalqaro tashkilotning huquq subyektiligi quyidagi to'rtta elementni o'z ichiga oladi:

- huquq layoqati, ya'ni huquq va majburiyatlarga ega bo'la olish imkoniyati;
- muomala layoqati, ya'ni tashkilotning o'z harakatlari bilan xalqaro huquq va majburiyatlarni bajara olish imkoniyati;
- xalqaro huquq ijodkorlik jarayonida ishtirok eta olish imkoniyati;
- delikt layoqat, ya'ni o'z harakatlari yuzasidan huquqiy javobgar bo'la olish qobiliyati.³

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shunga guvoh bo'lishimiz mumkinki, xalqaro tashkilotlarni huquq subyekti sifatida e'tirof etishimiz uchun ularda ma'lum bir elementlar mavjud bo'lishi lozim va bu elementlarning eng asosiylaridan biri esa xalqaro tashkilotlarning huquq layoqati hisoblanadi. Umuman olganda xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning huquqiy layoqati tashkilotlarning xalqaro huquqda qanday asosida tashkil etilishi, ularning huquq va majburiyatlari, shuningdek, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlardagi huquqi va imkoniyatlarini belgilovchi tamoyillar hisoblanadi. Misol tariqasida shuni keltirishimiz mumkinki, Shanxay hamkorlik tashkiloti nizomining 15-moddasi tashkilotning huquq layoqatiga bag'ishlangan:

ShHT xalqaro huquq subyekti sifatida xalqaro huquq layoqatiga ega. U har bir a'zo davlat hududida o'z maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquq layoqatiga ega.

ShHT yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi va, xususan:

- shartnomalar tuzish;
- ko'char va ko'chmas mulkni sotib olish va ularni tasarruf etish;
- sudlarda da'vogar yoki javobgar sifatida ishtirok etish;
- hisobvaraqlar ochish va pul mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish.⁴

Ta'kidlanganidek, ayniqsa shartnomalar tuzishda xalqaro tashkilotlar huquq layoqating o'zni alohida ahamiyat kasb etadi. Asosan xalqaro tashkilotlar ommaviy-huquqiy, xususiyy-huquqiy yoki aralash xarakterdagi shartnomalarni tuzish vakolatiga ega bo'ladilar. 1986-yilgi davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquq to'g'risidagi Vena konvensiyasi xalqaro tashkilotlarning shartnoma tuzish tartibini belgilab beradi.

³ Xalqaro tashkilotlar huquqi, O'quv qo'llanma. Ma'sul muharrir y.f.d., professor A.Z. Muxammedjanov // Mualliflar jamoasi. - T.: TDYU nashriyoti, 2019. – b 35

⁴ Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Nizomi 15-moddasi

Amaliyotda bir tomonda xalqaro tashkilot ikkinchi tomonda davlat yoki xalqaro tashkilot bo'lgan shartnomalar ko'plab tuzilgan.⁵ Misol tariqasida 1947-yil 31-oktabrda BMT Bosh Assambleyasining 169 (II)rezolyutsiyasi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Amerika Qo'shma Shtatlari hukumati o'rtasidagi Birlashgan millatlarning Markaziy muassasalari qarorgohiga oid kelishuvni keltirishimiz mumkin.

Shu bilan birgalikda xalqaro tashkilotlarni xalqaro huquq subyektiligini ta'minlovchi yana bir element bu xalqaro tashkilotlarning muomala layoqati hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlarning muomala layoqati xalqaro tashkilotlarning boshqaruv, tashkiliy, moliyaviy va boshqa sohalarda qanday qilib o'zaro aloqalar va ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish imkoniyatlarini belgilovchi huquqiy va normativ asoslar majmui hisoblanadi. Ya'ni xalqaro tashkilotlarning xalqaro munosabatlarga kirishish jarayonida muhim rol o'ynaydigan elementlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ko'rib turganimizdek, xalqaro ommaviy huquqda xalqaro tashkilotlarning huquq va muomala layoqatlari muhim ahamiyatga ega va xalqaro tashkilotlarni xalqaro huquq subyekti sifatida e'tirof etishimiz uchun zarur elementlardan hisoblanadi.

Ta'sis hujjatlariga muvofiq barcha hukumatlararo tashkilotlar yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladilar. A'zo davlatlar ularni o'z vazifalarini bajarish uchun yetarli hajmda huquqlar hamda muomala layoqati bilan ta'minlaydilar.⁶

Shu o'rinda, xalqaro tashkilotlarning xalqaro huquq ijodkorlik jarayonida ishtirok eta olish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, xalqaro tashkilotlar xalqaro huquq ijodkorligi jarayonida muhim o'rin egallaydi. Ularning ishtiroki nafaqat normativ huquqiy asoslarni yaratishga, balki global muammolarni hal qilish uchun xalqaro aloqalarni rivojlantirishga ham qaratilgan. Bunday tashkilotlar orqali hukumatlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida xalqaro hamkorlikni ta'minlash imkoniyati yanada kuchayadi.

Yana bir muhim elementlardan biri sifatida xalqaro tashkilotlarning delikt layoqatini keltirib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Delikt layoqat ya'ni xalqaro tashkilotlarning javobgarligi. Xalqaro tashkilotlarning delikt layoqati, ularning xalqaro huquqiy maqomidan kelib chiqadi va ularning harakatlari va qarorlari natijasida yetkazilgan zararlarga nisbatan javobgarlikni ta'minlaydi. Bu element xalqaro tashkilotlar faoliyatini yanada aniq va shaffof bo'lishga undaydi.

⁵ Xalqaro tashkilotlar huquqi. O'quv qo'llanma. Ma'sul muharrir y.f.d., professor A.Z. Muxammedjanov // Mualliflar jamoasi. - T.: TDYU nashriyoti, 2019. – b 37

⁶ Xalqaro tashkilotlar huquqi. O'quv qo'llanma. Ma'sul muharrir y.f.d., professor A.Z. Muxammedjanov // Mualliflar jamoasi. - T.: TDYU nashriyoti, 2019. – b 36

Xalqaro tashkilotlarning javobgarligi asosan "Vena davlatlararo shartnomalari to'g'risidagi konvensiya" (1969) va "Birlashgan Millatlar Tashkilotining xatti-harakatlari va foiz konvensiyasi" asosida belgilanadi.

Yuqorida ta'rif berib o'tilgan elementlar xalqaro tashkilotlarning xalqaro subyektiligini ta'minlovchi eng muhim elementlar hisoblanadi. Endigi navbatda ushbu elementlarning eng asosiylaridan biri bo'lmish xalqaro tashkilotlarning huquq layoqati tushunchasiga yanada chuqurroq yondashamiz. Xalqaro tashkilotlarning huquqiy tabiati a'zo davlatlarning umumiy maqsad va manfaatlarining mavjudligiga asoslanadi.

Xalqaro tashkilotlarni qurishda davlatlarning suveren tengligi tamoyili yetakchilik qiladi.

Uning namoyon bo'lishi asosan quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- xalqaro tashkilotning shartnomaviy asosi;
- ixtiyoriy a'zolik;
- tashkilot qarorlarining asosan maslahat xarakteri;
- uning davlatlararo tabiati; tashkilot ichida ham, undan tashqarida ham davlatlarning suvereniteti va tengligini saqlash.

Xalqaro tashkilotning huquqiy tabiati uchun uning maqsad va tamoyillari, vakolatlari, tuzilishi va boshqalar muhim ahamiyatga va kelishilgan shartnomaviy asosga ega.

Hozirgi kunda davlatlar xalqaro tashkilotlarni tuzishda ularga ma'lum huquqiy layoqat beradilar, ularning quyidagi belgilari keng e'tirof etiladi:

- huquq va majburiyatlarga ega bo'lish;
- xalqaro huquq normalarini yaratish va qo'llashda ishtirok etish;
- xalqaro huquq me'yorlariga ehtiyotkorlik bilan rioya qilish.

Bu belgilar orqali davlatlar xalqaro huquqning yangi sub'ektini yaratadilar, shu bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlar davlatlar bilan bir qatorda xalqaro hamkorlik sohasida qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash va huquqni muhofaza qilish funksiyalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xalqaro tashkilotlar o'z vazifalarini bajarish uchun zarur huquqiy vositalarga ega bo'lishi kerak. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 104-moddasi ushbu maqsadlar uchun "Birlashgan Millatlar Tashkiloti har bir a'zo davlat hududida o'z vazifalarini bajarish va maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan huquq layoqatiga ega bo'ladi"⁷. Shunga o'xshash qoidalar aksariyat ta'sis hujjatlarida mavjud. Ta'sis hujjatlariga muvofiq barcha hukumatlararo tashkilotlar yuridik shaxs magomiga ega bo'ladilar. A'zo davlatlar ularni o'z vazifalarini bajarish uchun yetarli hajmda hujjatlar hamda muomala layoqati bilan ta'minlaydilar.

⁷ Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi 104-modda

Bunday hollarda davlatlar milliy qonunchilikka muvofiq yuridik shaxslarga qanday huquq, imtiyozga ega bo'lib va majburiyatlar yuklasa, xalqaro tashkilotlarga ham xuddi mana shulardan foydalanish huquqi beriladi. Biroq xalqaro tashkilotlarning yuridik shaxs sifatidagi holati tashkilotga a'zo bo'lgan va a'zo bo'lmagan davlat hududidagi faoliyatiga qarab farqlanadi.

Agarda tashkilot unga a'zo bo'lgan davlat hududida yuridik shaxs tarzida faoliyat olib boradigan bo'lsa, u xalqaro huquqqa muvofiq beriladigan immunitet huquqini saqlagan holda faoliyat olib bora oladi. Aksincha, tashkilotga a'zo bo'lmagan davlat hududidagi faoliyati esa uning immunitet huquqini rad etgan holda o'sha davlatning oddiy yuridik shaxsi sifatida harakat qilishiga olib keladi.⁸

Xalqaro tashkilotlar shartnomaviy huquqiy layoqatga ega ekanligini yuqorida ta'kidlagan edik, ya'ni ular o'z vakolatlari doirasida turli xil shartnomalar tuzish huquqiga ega. Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 6-moddasida "xalqaro tashkilotlarning shartnomalar tuzish huquqi ushbu tashkilot qoidolari bilan tartibga solinadi"⁹. Konvensiyaning 2-bandida "tashkilot qoidolari" deganda, xususan, ta'sis hujjatlari, ularga muvofiq qabul qilingan qarorlar va qoidalar, shuningdek, tashkilotning o'rnatilgan amaliyoti tushunilishi aniqlangan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 100-moddasiga binoan, Bosh kotib va Kotibiyat xodimlari "Tashkilotdan tashqari hech qanday hukumat yoki hokimiyatdan ko'rsatmalar so'ramasliklari yoki qabul qilishlari mumkin emas, ular o'zlarining faqat tashkilot oldida javobgar bo'lgan xalqaro mansabdor shaxs oldin javobgar bo'lgan xalqaro mansabdor sifatidagi obro'lariga putur yetqazadigan har qanday harakatlardan tiyilishlari kerak."¹⁰

Har bir xalqaro tashkilotda moliyaviy resurslar mavjud bo'lib, ular asosan a'zo davlatlarning badallaridan iborat bo'lsa-da, faqat tashkilotning umumiy manfaatlariga sarflanadi.

Xalqaro tashkilotlar ham davlatlarning ichki qonunchiligiga binoan yuridik shaxsning barcha huquqlari bilan harakat qiladi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti Nizomining 39-moddasida XMT yuridik shaxsning barcha huquqlariga, xususan shartnomalar tuzish huquqiga, ko'char va ko'chmas mulkni sotib olish va tasarruf etish huquqiga, shuningdek sud ishlarini qo'zg'atish huquqiga ega ekanligini belgilaydi. Guvohi bo'lib turganimizdek, keltirib o'tilgan huquqlarnig barchasi bevosita xalqaro tashkilotlarning huquq layoqati negizida vujudga keladigan huquqlar hisoblanadi. Ushbu huquqlar orqali xalqaro tashkilotlarning xalqaro huquq subyektiligi darajasi yanada mustahkamlanadi.

⁸ Xalqaro tashkilotlar huquqi. O'quv qo'llanma. Ma'sul muharrir y.f.d., professor A.Z. Muxammedjanov // Mualliflar jamoasi. - T.: TDYU nashriyoti, 2019. – b 38

⁹ Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 6-moddasi

¹⁰ Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 100-moddasi

Xalqaro tashkilotlarning huquq layoqati masalasi haqida soʻz yuritir ekanmiz ushbu holatga doir amaliyotda yuzaga kelgan bir muammoli vaziyatni muhokama qilishimiz maqsadga muvofiq boʻladi.

Yevropa Ittifoqi va Britaniya (Brexit) Keysi

Vaziyat shundan iboratki, Britaniyaning Yevropa Ittifoqidan chiqishi (Brexit) xalqaro siyosat va iqtisodiyotda muhim voqea boʻlib, 2016 yil 23 iyunda oʻtkazilgan referendumda Britaniya aholisining 51.9% Yevropa Ittifoqidan chiqishni qoʻllab-quvvatlagan. Bu holat esabir necha oqibatlarga, xususan Yevropa Ittifoqining huquq layoqatiga ham oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmagan. 2016 yilgi referendumda britaniyaliklar Ittifoqdan chiqishni tanladilar. Bu qaror iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy oqibatlarga olib keldi:

- Iqtisodiy Oʻzgarishlar: Brexitdan keyin Britaniyaning iqtisodiy barqarorligi taʼsirlandi.

Funt sterlingning qiymati pasayishi, investitsiyalar kamayishi va bozorlarning noaniqligi kuzatildi.

- Siyosiy Munozaralar: Brexit jarayoni davomida Yevropa Ittifoqi bilan muzokaralar murakkab va uzoq davom etdi. Britaniya hukumati ichida siyosiy kelishmovchiliklar yuzaga keldi, shu jumladan bosh vazirlarning oʻzgarish holati yuz berdi.

Shu bilan birgalikda, Britaniyaning Yevropa Ittifoqidan chiqishi (Brexit) Yevropa Ittifoqining huquqiy layoqati bilan bir qator jihatlar bilan bogʻliq:

- Brexit Yevropa Ittifoqining huquqiy tizimiga bevosita taʼsir koʻrsatdi. Britaniya, Ittifoqning asosiy qoidalarini va qonunlarini oʻz ichiga olgan barcha kelishuvlardan chiqdi, bu esa Ittifoqning huquqiy layoqatini chekladi. Ittifoqning qonunlari va nizomlari Britaniya hududida amal qilmaydi.

- Brexitdan soʻng, Britaniya Ittifoq qonunlaridan ozod boʻlib, oʻzining qonuniy bazasini shakllantirish imkoniyatiga ega boʻldi. Bu holat Yevropa Ittifoqining huquqiy layoqatini, shuningdek, Britaniya va Ittifoq oʻrtasidagi normativ huquqiy hujjatlar bilan bogʻliq yangi talablarni hamda talablarga muvofiq kelishuvlarni qayta koʻrib chiqishni keltirib chiqardi.

- Britaniya va Yevropa Ittifoqi oʻrtasida yangi siyosiy va iqtisodiy aloqalar oʻrnatish zarurati paydo boʻldi. Bu savdo va investitsiya boʻyicha yangi kelishuvlar va shartnomalar tuzishni talab qildi.

- Britaniya Ittifoqdan chiqishi muhojirlik va ijtimoiy huquqlar boʻyicha yangi qoidalar va tartiblarni joriy etdi, bu esa Yevropa fuqarolarining Britaniya hududida yashash va ishlash huquqiga taʼsir koʻrsatdi.

Vaziyatdan shunga guvoh boʻlishimiz mumkinki, Britaniyaning Ittifoqdan chiqishi Yevropa Ittifoqining huquqiy layoqatini maʼlum darajada cheklanishi va oʻzgarishiga sabab

bo'lgan, bu esa o'z o'zidan huquq layoqatining tashkilotlar faoliyatida qay darajada muhim ahamiyat kasb etishining yaqqol isbotidir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar xalqaro huquq va munosabatlar tizimida muhim rol o'ynaydi. Ular o'zining asosiy bitimlari orqali huquqiy layoqatini belgilab, davlatlar o'rtasida shartnomalar tuzish, nizolarni hal qilish va tinchlikni ta'minlashda faol ishtirok etadilar. XHTlar xalqaro huquq doirasida yuridik shaxs sifatida tan olinadi va shartnomalar imzolash, sudlarga murojaat qilish va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilish huquqiga ega bo'ladilar.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar davlatlar tomonidan, ya'ni ularning kelishuvi asosida yaratilishiga qaramasdan, xalqaro huquqda davlatlar bilan bir qatorda asosiy subyekt sifatida e'tirof etiladi. Subyektilikning ahamiyati esa, xalqaro tashkilotlarning bevosita huquq layoqati doirasida amalga oshiradigan faoliyati, huquq va majburiyatlari bilan bog'liqligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Shunday qilib, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar xalqaro tizimda mustahkam o'rin egallab, dunyo miqyosida tinchlik, xavfsizlik va hamkorlikni ta'minlashda muhim vazifalarni bajaradi.

REFERENCES

1. Xalqaro ommaviy huquq: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik: / Odilgoriyev X.T., Ochilov B.E.; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent davlat yuridik instituti. - Toshkent: Adolat, 2007. - 487 b
2. Xalqaro tashkilotlar huquqi. O'quv qo'llanma. Ma'sul muharrir y.f.d., professor A.Z. Muxammedjanov // Mualliflar jamoasi. - T.: TDYU nashriyoti, 2019. - 185 bet.
3. Catherine Brölmann "The Institutional Veil in Public International Law" 2007

Internet resurslari:

1. <https://lex.uz/docs/2054961>
2. <https://lex.uz/docs/2646414>
3. https://unic.un.org/aroundworld/unics/common/documents/publications/uncharter/charter_Uzbek.pdf